

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Biologiya va biotexnologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Biolaboratoriya sharoitida entomofaglarni mahsuldorligini va samaradorligini oshirish uchun oziqlantirish tartiblarini takomillashtirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Biolaboratoriyalarda ko‘paytirilayotgan trixogrammani ko‘paytirishda ishlatiladigan asosiy xo‘jayini don kuyasidan olinadigan tuxumlarining mahsuldorligi, sifatini yaxshilash yo‘llarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish; - Biolaboratoriyalarda ko‘laytirilayotgan trixogrammaning shikastlanish ko‘rsatkichlari bartaraf etish choralarini topish va amaliyotga tatbiq etish, trixogrammani tunlamlar tuxumlariga qarshi qo‘llash orqali biologik samaradorligi oshirish; - Biolaboratoriyalarda ko‘paytirilayotgan brakon entomofagining laboratoriyadagi xo‘jayini mum kuyasini oziqa tarkibini yaxshilash hisobiga mahsuldorligini oshirish. - Biolaboratoriyalarda ko‘paytiriladigan brakon oltin ko‘z entomofaglarining sifatini yaxshilash, mahsuldorligini oshirish maqsadida ularning ozuqa tarkibini ishlab chiqish. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligining tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.